

AXLOQIY MADANIYAT VA QADRIYATLAR FALSAFA TALQINIDA

Andijon davlat pedagogika insituti
Fizika va astranomiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Rejavalievva Gulruhbegim Ahmadillo qizi,
Andijon davlat pedagogika insituti
Fizika va astranomiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Foziljonova Mahliyo Komiljon qizi,
Andijon davlat pedagogika insituti
Fizika va astranomiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Hoshimova Mubinabonu Farhodjon qizi
Andijon davlat pedagogika insituti
Fizika va astranomiya yo'nalishi 1-bosqich talabasi
Ibrohimjonova Zuhra Ikromjon qizi

Annotatsiya: *Hozirgi davr talabi biz yoshlarni ham ruhan ham ma'nan tarbiyalashdan iborat. Shiddat bilan bu zamonga biz yoshlar shay turmog'imiz darkor . Shu asnoda odob-axloq chegarasidan chiqmagan, qadriyatlarimizni unutmagan holda yondashishimiz joiz. Axloqiy ma'daniyat me'yorlariga rioya etgan holda diniy hamda dunyoviy bilimlarimizni mustahkamlab bormoqdamiz. Buning uchun biz yoshlar ajdodlarimiz qoldirgan madaniy va moddiy meroslarni izchil o'rganishimiz zarur. Shundagina qadim-qadimdan meros bo'lib kelayotgan urf-odat, an'ana va qadriyatlarni ulug'laymiz va qadrlaymiz. Muomala madaniyat, so'zlarni uyg'unligi hamda estetik madaniyat biz bilan birga hamohang bo'lishi zarur. Ushbu maqolada yoshlarni ma'naviy ruhda tarbiyalash, dunyoqarashini ortishida nazariy bilim va tushunchalarimni boyitib boraman. Darhaqiqat ushbu maqola barchasini mujassamlagan holda har bir yosh avlad boshlagan ishini odob axloq doirasida bo'lishiga yordam beradi deb o'ylayman.*

Kalit so'zlar: *Axloqiy madaniyat, muomala odobi, suhbat, imo-ishora, kasbiy etika, kasbiy ta'lim, axloqiy tarbiya, komil inson, namunaviylik, madaniyat, bioetika, odob-axloq.*

Inson doimiy ravishda ravnaq topib boradigan mavjudot uzoq vaqt davom ergan insoniy taraqqiyotning mahsuli, ya'ni, tosh asridagi odam va hozirgi davrdagi odam, garchand ikkalasi ham odam deb hisoblansadan bir-biridan farq qiladi. Zamonaviy odam aqlan, axloqan nisbatan yuksak darajaga ko'tarilgan, jismonan esa, - go'zallashgan. Madaniyatning turlari ichida xususan ma'naviy madaniyat doirasida axloqiy madaniyat o'zining nihoyatda keng qamrovligi bilan ajralib turadi. Uning shaxs hayotida voqe bo'lishi xilma-xial voqea hodisalarda ro'y beradi. Axloqiy madaniyat shaxsga o'zgaralar bilan munosabatda an'anaviy axloqiy qonun-qoidaladan ijobiy foydalanishni, ularga zamonaviy nuqtayi nazardan yondashishni ezgulik bilan yovuzlikning farqiga borishni va egallagan axloqiy bilimlarini samarali tadbiiq etishga

o'rgatadi. Qisqasi u shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallash va ulardan o'z tajribalarida foydalanish o'z-o'zini muntazam takomillashtirib singari jihatlarini qamray oladi; shu bilan shaxs axloqiy taraqqiyotining belgisi hisoblanadi hamda davlat va jamiyatdagi axloqiy darajani yuksaltirishga xizmat qiladi. Axloqiy madaniyat doimo zamonaviydir. Ya'ni, u muayyan zamon erishgan axloqiy yutuqlar yohud darajaning shaxs axloqiy hayotidagi ko'rinishidir. To'g'ri u yuqorida aytganimizdek, ma'naviy axloqiy qadiyatlarni butunlay inkor etmaydi, lekin ularning zamonaviy shakllarda namoyon bo'lishini ta'minlaydi. Aksincha Navoiy davridagidan farq qiladi. Garchand, u davrdagi mulozamat, takalluf va murojat odobi o'z mohiyatini saqlab qolgan bo'lsa-da, bugun ulardan o'sha shakllarda foydalanish erish tuyuladi, hazilomuz-kulgili ko'rinadi, hatto istehzoli-kinoyaviy urg'u kasb etadi. Biz yuqorida madaniyatning keng qamrovlilik xususiyatini ta'kidlab o'tdik. Zotan madaniyatning biror sohasi yo'qki, unda axloqiy madaniyat bevosita yoki bilvosita ishtirok etmagan bo'lsin. U iqtisodiy madaniyatni, tabiiy madaniyatni, estetik madaniyatni, baribir axloqiy madaniyatsiz mavjud bo'lolmaydi. Insonlar toki jamiyat bo'lib hayot kechirar ekanlar, ular bir-birlari bilan axloqiy munosabatga kirishmay yashashlarining iloji yo'q. Axloqiy madaniyat ana shu munosabatning asosi, mohiyatini tashlik etadi.

Axloqiy madaniyat axloqiy tafakkur madaniyatning qator unsurlarini o'z ichiga oladi. Ana shunday eng muhim unsurlaridan biri- muomala odobi. Muomala odobi boshqa kishilar qadr-qimmatini, izzatini joyiga qo'yishini, an'anaviy axloqiy me'yoriy talablarni bajarishini taqazo etadi. Shuning barobarida, insondagi yaxshi jihatlarini namoyon etishi, ko'zga ko'rsatishi bilan ham ajralib turadi. Etiket tushunchasini ham gapirib o'tadigan bo'lsak, u insonning ko'proq tashqi madaniyatini o'zaro munosabatlardagi o'zini tutish qonun qoidalarining bajarilishini boshqaradi. Agar muomala odobida inson o'z munosabatlariga ijodiy yondashsa, ya'niy bir holatda bir necha xil muomala qilish imkoniga ega bo'lsa, etiket muayyan holat uchun faqat bir xil qoidalashtrib qo'yilgan xatti-harakatni taqazo etadi. Etiketning qamrovi keng, u, ma'lum ma'noda, xalqaro miqyosda qabul qilingan muomala qonun-qoidalarini o'z ichiga oladi. Milliy mentalitetda marosimlar etiketi, ayniqsa katta ahamyatga ega. Chunki udum, odat rasm-rusmlar muayyan darajada erkinlikka ega bazan ularni bajarmaslik ham mumkin. Lekin etiketda buning imkoni yoq -etiket qonun-qoidalari majburiylik tabiatiga ega. Etiketning yana bir alohida jihati bor : undan odob bilan go'zallikning uyg'unligini ko'rishimiz mumkin qat'iy odob-qonun qoidalari chiroyli hatti-harakatlar vositasida amalga oshiriladi. Demak, etiket estetikam ham bog'liq, aniqrog'i o'zini tuyish estetikasi talablarga javob beradi. Insonning axloqiy hayoti uning axloqiy tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq. Zero, axloqiy tarbiya insonning shaxs bo'lib yetishuvini taminaydigan uzluksiz jarayonlardan biri. Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikki muhim masalaga javob izlaydi: bulardan biri – qanday yashamoq kerak, ikkinchisi – nima qilmoq lozimu, nma qilmaslik lozim. Tarbiya ona qornidan boshlanadi degan gap bor. Uning asl ma'nosida, avvalo, ota-onaning axloqiy

tarbiya ko'rgan bo'lishi kerak degani. Zero, qush inida ko'rganini qiladi: ota-ona oilada yuksak axloq namunasini ko'rsatish mumkin. Shunday qilib, axloqiy tarbiya inson farzandini takomiliga, komolikka yetkazish yo'llaridan biri. Uning vositalari ko'p. Uning bir qismi an'anaviy tarbiya vositalari bo'lsa, yana bir qismi zamonaviy vositalar. Odatda har ikki turdagi vositalardan foydalaniladi. Chunonchi maktabgacha bo'lgan axloqiy tarbiyada ertak va rivoyatlar vositadagi an'anaviy tarbiya bilan o'yinchoqlar va o'yinlar vositasidagi zamonaviy tarbiya muvofaqiyatli qo'llaniladi. Bugungi dunyo boshidan kechirayotgan globallashtirish jarayoni insoniyat uchun kata imkoniyat eshigini ochib bermoqda. Lekin ayrim kuchlar dunyoni murakkablashtirishga harakat qilyabdi. Xususan doimo zo'ravonlik va gegamonlik hisobidan biylik ortirib kelgan kuchlar "ommaviy madaniyat" ortidan ergashsa o'zining ijobiy qobiliyatidan yiroqlashadi va madaniy "iste'molchisi"ga aylanib qoladi. Aslida to'g'ri ma'nodagi ommaviy madaniyat ko'pchilik o'ylaganidek, zararli tushuncha emas. U, eng avvalo, bir-birimizga "Assalomu alaykum" deya tinchlik tilashimizdan boshlanadi. Xalqimizning ming yillar sinovidan o'tgan bayramlari, to'ylari, ijodi, bir so'z bilan aytganda, omma uchun madaniyatga ulgurgan barcha qadriyatlar ijobiy ma'nodagi ommaviy madaniyat namunalari hisoblanadi. "Ommaviy madaniyat" asosini esa "Biz" degan tushuncha emas, "Avvalo mening o'zim, keyin boshqalar" degan g'arbona egosetrim g'oyasini tashkil etadi.

Boshqacha qilib aytganda, "ildizi yo'q individ" larning shakllanishiga olib kelmoqda. "Ommaviy madaniyat" turli xil ko'rinishlarining yoshlar orasida tobora keng tarqalishi asosan kiyinishda, qiziqishlarda, bo'sh vaqtni o'tkazishda, didlarning sayozlashuvida, milliy qadryatlarga munosabatda namoyon bo'lmoqda. Bular esa behayolik va zo'ravonlik, milliy qadryatlarga va ijtimoiy manfaatlarga bepisandlik bilan munosabatda bo'lishi kabi illatlarni keltirib chiqaradi.

Xulosa qilib aytganda bugungi kunda yoshlar orasida taqlidchilik holatlarining kuchayayotganligi kuzatilyapti. Xorijda keng tarqalgan axloqiy va ma'naviy yurish-turish andozalarining kinofilmlar, moda va turli xil reklamalar orqali yoshlarimizning ongini ma'lum ma'noda zaharlayotganini sezish qiyin emas. Natijada, yoshlar o'rtasida kitob o'qishdan ko'ra kompyuter o'yinlarining oldida vaqtini o'tkazish, mazmunan sayoz filmlarni tomosha qilish odat tusiga kirib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi.-T.. "O'zbekiston", 2014. 24b
2. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Farmoni.
3. Mirziyoyev. Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz.- Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-488 b
4. Mirziyoyev. Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.- Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017.-48 b.